

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'iy INTELLEKT VA AXLOQ



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-24-312-317>

Primov Baxriddin Abdiraxmonovich

Tosheknt davlat iqtisodiyot universiteti

Falsafa kafedrası v.b., dotsenti.

Toshkent, O'zbekiston

Tel: (93)583-27-81

Gmail: baxriddinprimov57@gmail.com

ORCID 0009-0008-8082-0098

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat va undagi bugungi kunda tez suratlarda ommalashib borayotgan sun'iy intellekt texnologiyalari o'rtasidagi axloqiy masalalar va u bilan bog'liq muammolari tahlil etilgan. Mualliflar o'z tadqiqotda axborot bilan o'zaro bog'liq holda ishlaydigan inson va texnologik dasturlar o'rtasidagi munosabat, sun'iy intellekt natijasida yuzaga keladigan etik (axloqiy) me'yorlarni qo'llanilishi kabi dolzarb masalalarni ko'rib chiqqan. Shuningdek, mazur maqolada sun'iy intellekt faoliyati inson nazorati ostida bo'lishi, asil insoniy qadriyatlarga muvofiq tarzda rivojlanishi uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar tavsiya etilgan. Muxtasar qilib aytganda, maqola axborotlashgan jamiyatda sun'iy intellekt va axloq masalalari bilan qiziquvchi mutaxassislar hamda tadqiqotchilar uchun foydali manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: axborot, axborot texnologiyalari, axborotlashgan jamiyat, sun'iy intellekt, axloq, axloqiy me'yorlar, axloqiy mezonlar va adolat.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND ETHICS IN THE INFORMATION SOCIETY

ANNOTATION

This article analyzes the ethical issues and related problems between the information society and the artificial intelligence technologies that are becoming popular in today's fast photos. In their research, the authors considered such topical issues as the relationship between humans and technological programs working in relation to information, and the application of ethical (moral) standards resulting from artificial intelligence. Also, this article recommends the measures that should be implemented so that the activity of artificial intelligence is

under human control and develops in accordance with noble human values. In short, the article is a useful resource for experts and researchers interested in the issues of artificial intelligence and ethics in the information society.

Key words: *information, information technologies, information society, artificial intelligence, ethics, ethical standards, ethical criteria and justice.*

KIRISH (Introduction). Axborot bog‘liqlikda amalga oshadigan jarayon hisoblanayotgan sun‘iy intellekt kun sayin uning imkoniyatlari kengayib bormoqda. Sun‘iy intellekt insonlar olidiga axloqiy -etik masalalarning dolzarbligini kun tartibiga olib belmoqda. Dasturiy ta‘minot asosila ishlaydigan texnologik mashinaning qaror qabul qilish insonlarni xushyor tortishga majbur qilmoqda. Kiritilgan ma‘lumotlar asosida qayta ishlovchi SI ni axloqiy jihatdan tartibga solinishi zarurati yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda bilish lozimki, axborot va sun‘iy intellekt o‘zaro bog‘liqdagi muvozanatni topish bilan ilmiy yechim va yondoshuvlarni talab etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (Literature review)
Axborot va sun‘iy intellekt o‘rtasidagi adabiyotlar tahlili yangi yuzaga kelayotgan soha bo‘lganligi uchun adabiy holatlarni yoritishda nazariy va amaliy jarayonlar bilan bog‘liq turli manbalarni hamda qarashlarni to‘g‘ri belgilashni talab etadi. Ayniqsa ushbu sohaning ijtimoiy axloqiy oqibatlar yetarlicha o‘rganishni taqozo etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (Research Methodology). Mazkur tadqiqotda sun‘iy intellektning axborotlashgan jamiyatdagi axloqiy ta‘sirini o‘rganishda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Ilmiy tahlil, muqobil nuqtayi nazarlarni solishtirish, tahlil va sintez usullari orqali mavzuga doir nazariy manbalar o‘rganildi. Shuningdek, axloq va sun‘iy intellekt bo‘yicha xalqaro amaliyotlar tahlil qilindi va ularning jamiyatimiz uchun mos modellari asosida xulosalar chiqarildi. Axborot texnologiyalari, etika va sotsiologiya sohalari kesishmasidagi multidissiplinar yondashuv asosida masalaga ilmiy-amaliy yondashuv shakllantirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR (Results and Discussions)

Bir qarashda axborot va sun‘iy intellekt (SI) biri-biriga yaqindek ko‘rinsada ular alohida funksiyalarga ega. Ular o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘zining murakkabligi, chuqur ilmiy asoslarni talab etadigan jihatlari bilan ajralib turadi. Axborotlarni yaratishda mavjud bilimlar, olib borilgan tajribalar va voyelikda ro‘y berayotgan rialliklar asosida amalga oshiriladi. Sun‘iy intellekt esa axborotlar asosida yaratiladigan manba hisoblanadi. Bularni o‘zaro bog‘lovchi jarayonlar ijtimoiy

hayotdagi ma'lumotlar bazasi, kibernetika va kognativ qarashlar asosidagi fanlarning yillar davomida yig'ilgan nazariy va amaliy tadqiqotlariga asoslanadi. Axborot harakatlantiruvchi manba hisoblansa, sun'iy intellekt potensial funktsiya hisoblanadi. Har ikkalasini qiyoslasak axborot energiya bo'lsa, harakatlantiruvchi esa sun'iy intellekt hisoblanadi.

Bunday ma'lumotlar nazariyasining shakllanishiga dastlab yechim izlagan olimlardan biri Klod Shennonn hisoblanadi. U axbortlarni saqlash, qayta ishlash va tarqatish tamal toshini qo'ygan bo'lsa, uning ustqurmasi vazifasi bajarivchi sifatida sun'iy intellekt modellari yuzaga kelmoqda. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, axbortlarni tahlil qilishni insonlar amalga oshirdan bo'lsa va bu ma'lum bir vaqt talab etadigan jarayon hisoblandi. Sun'iy intellekt esa bazada yig'ilgan insonlar fikrini qayta ishlash, kognitiv jarayonlarni simulyatsiya qilish orqali ma'lumotlarni o'zgacha shaklda tahlil qilish usulidir.

Sun'iy intellekt muhim jarayonlaridan biri bu, shakllantirilgan ma'lumotlar bazasini tahrirlovchi sensorlar orqali qabul qiladi, qayta ishlov beradi, o'rgandi va qarorlar qabul qiladi. Bu samarali algoritmlar usulidan foydalanib yechimlar beradi. O'rganishlarimiz shun ko'rsatdiki, bugungi kundagi yaratilgan axbortlarni sun'iy intellekt orqali qayta yaratish imkonini beradi. Jahondagi internet tizimi sun'iy intellekt samaradorligini yanada oshirdi va bu “axborot generatsiyasi” ni yanada oshishiga olib kelmoqda. Mavjud axborot va sun'iy intellekt o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni quyida ko'rib o'tamiz:

- * axborot va ma'lumotlar sun'iy intellektning muhim manbasi;
- * sun'iy intellekt axbortlarni sinergetik tahlil qiladi va modellashtirdi;
- * sifatli axborot sun'iy intellekt samaradorligini oshiradi;
- * sun'iy intellekt yangi axborot yaratishning deversifikatsiya shakli.

Bu bilan bog'liq kongnitiv fanlar rivojini, axborot nazariyasi, kibernetika, statistika va raqamli texnologiyalar istiqbolini ham belgilashda hamda samarali yechimlar topishda muhim ilmiy asosga ega.

Bugungi kunda global axborot tizimi hisoblangan internet va undagi turli kanallar, saytlar ijtimoiy hayotda ham o'zining ijobiy tomonlari bilan axloqiy jihatlariga ham e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Yangi rivojlanayotgan sun'iy intellektga ham ta'siri qanday darajada ekanligi va axloqiy tomonlari qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi degan savollarga ham javob izlashga olib kelmoqda.

Sun'iy intellekt (SI) va axloq o'rtasidagi o'zaro munosabat hozirgacha yaratilgan axoborotlar bilan ishlovchi tizimining, hozirgi ilm-fanning, insoniyat axloqiy kelajagini belgilovchi murakkab va ziddiyatli muammolaridan biridir. Bu ayniqsa falsafiy, etik va huquqiy asoslarga ham ega. Internet tizimidek sun'iy intellekt ham insonlarning qanday niyatda va maqsadda foydalanishiga bog'liqdir.

Sun’iy intellekt alohida axloqiy subyekt emas, lekin axloqiy oqibatlari insonlarga bog‘liq. Chunki, sun’iy intellektda shaxslarga xos iroda va vijdon tuyg‘ulariga ega emas, shaxs kabi axloqiy xulosa chiqarmaydi va subyekt sifatida xulosaga chiqarishga ega emas. Ammo shaxs foliyatiga ta’sir etadigan bilimlar yaratishga va qarorlar qabul qilishga olib kelishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, sun’iy intellekt faoliyati axloqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi va uni axloqiy mezonlar bilan yondashgan holda yechim topishni taqozo etadi.

Informatsion tenologiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, uni tadqiq etuvchi fan-texnoetika deb nomlagandi. Demak, uni yataruvchilar va foydalanavchilar bunga amal qilish kerakligini belgilab beradi. Jeyms Murning (James Moor, 1985) shunday ta’kidlab, “Axloqiy hisob-kitobni talab qiluvchi har qanday avtomatlashtirilgan tizim axloqiy tizim hisoblanadi”[1] ta’riflaydi.

Sun’iy intellektning muhim tomonlari shundan iboratki, axloqni qo‘llab-quvatlash maqdasida ijobiy yechim vositasida foydalanish mumkin;

- adolotni ta’minlovchi va shaffolikni oshiruvchi bo‘lishi - SI shaxslardagi bir tomonlama qarashni, yon bosish va emotsional holatlar aylanib o‘t ishi. Masalan: Sud qararlari va tasxis belgilashda shaxs xatoliklari va omilini kamaytiradi;

- xizmat ko‘rsatish sohasida tenglikni ta’minlashi - nepotizm yo‘l qo‘ymaydi va navbatlar ketma-ketligi tengligini inobatga oladi.

- belgilangan tartib asosida axloqiy me’yor va mezoni standartlashtirish - masalan: etik simulyatsiya va aylanma dasturlardan foydalanib inson qadriyatlarini kodlashtirish urinishlari va h.k.

Salbiy jihatlari ham mavjud bo‘lib, axloqsizni xavf darajasiga olib kelish va neytrallik holatni egallashi ham mumkin:

- ma’lumotlardagi kamchiliklar va bir tonlama yondashuv - og‘ishishga qarab masalan: ayollar mazlum, erkaklar zo‘rovon sifatida (adlotsizlik va axloqsiz deb topish);

- ma’sulyatsizlik va beparvolik masalalari - SI qarorlari noto‘g‘ri va salbiy qabul qilganda javobgar kimligini aniqlashdagi xatoliklar. Foydalanuvchi, dastur bilan ta’minlovchi va tizimdagi xatoliklar. Masalan: SI sudga berish;

- axborotlar orqali inson qadrini avtomatlashtirish - masalan: yolg‘on faoltyatni ulug‘lash yoki aksincha.

Shuning uchun ham ixtiyot erkinligi va axloqiy tanlavni SI emas balki, insonning o‘ziga qolirishi zarur. Axloq shaxsning fikrati bilan bog‘liq SI uni axloqli yoki axloqsiz qilib qo‘ymaydi. Faqat inson SI dasturiy vazifa yuklashi ma’lum ta’minot va chegaralarni belgilab berishi mumkin. SI axloqni va inson qadriyatini yuklab bo‘lmaydi. Biroq bir yo‘nalish sifatida belgilab berishi mumkin.

Aytishimiz lozimki, sun'iy intellekt axloqiy vazifani yuklab bo'lmaydi. U texnik vosita bo'lganligi uchun axloqiy muammolarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Shu bilan birga axloqiy qarorlarni qabul qilishda undan to'g'ri foydalanish orqali tez yechim topish yoki aksincha axloqiy inqirozni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, SI ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchilar, inson qadri-qimmati, huquqiy javobgarlikni belgilashda va axloqiy me'yorlarni belgilashda tizimli algoritm asosida aniq hisob bilan amalga oshirish har bir tadqiqotchining yoki amaliyotga tatbiq etuvchining ilmiy hamda ma'suliyatli vazifasi bo'lmog'i shart.

XULOSA VA TAKLIFLAR (Conclusion/Recommendations)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak sun'iy intellekt va axloq o'rtasidagi bog'liqlik — bugungi zamonaviy axborotlashgan jamiyatda muhim masalalarni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, uning asil mohiyati inson qadri-qimmati, mas'uliyatni his qilish va texnologiya o'rtasidagi muvozanatda hamda biri-biriga o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'lamoqda. Sun'iy intellekt yig'ilgan mavjud axborotlar orqali faloiyat olib boruvchi axloqiy jarayonlar bilan munosabatga kirisha oladigan subyekt emas. Ammo, uning texnik faoliyati inson hayotiga ta'sir o'tkaza oladigan darjadagi oqibatlarga olib kelishi va odob-axloq me'yorlari tarozisi bilan o'lchanishi shart. U orqali yaratilgan adolat mezonlari ijtimoiy adolatga, o'zaro tenglik va huquqiy asoslarga uchun xizmat qilishi lozim. Ba'zida, u tomonidan berilgan axborotdagi og'ishlar, nojo'ya holatlar va huquqiy chegaralar chizig'idan chiqishi inson huquqlariga zarar yetkazishi natijasida axloqiy inqirozlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. SIga axloqiy xavfsizlik va insoniylik mezonlarini ta'minlash uchun dasturiy ta'minotini yaratish, inson qadri uchun javobgarlik bilan bog'liq etik me'yorlarga tayanishni o'rgatish zarur. Shunday ekan, yangi texnologiyalar bilan ishlash, amaliyotda qo'llash uchun ma'naviyatni va axloqni yo'qotmasdan aqlga tayangan, intellektual bilimni rivojlantirish har qachonidanda muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-tehnologicheskoe-eticheskoe-regulirovanie-v-infosfere-problema-vybora/viewer>
2. Мышление и искусственный интеллект. Психологический аспект / № 2 (13) 2021 “Фалсафа ва ҳаёт” халқаро илмий журналіда 2021 йил 13 декабр; Б. 178 – 180.
3. Примов Б. Ахборотлашган даврда ахлоқий қадриятлар емирилиши. // Шарқ тарихи, сиёсати ва ҳуқуқи. Тошкент-2024. №4(4-son).-Б. 286-296

4. Примов Б. Ахборт асрида кибер информатсион хафвсизлик. ЎзМУ хабарлари. Тошкент -№ 10. –Б. 147-149
5. Примов Б. Ахборот: тараққиёт ва таназзул.// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 6 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 -Б. 317-326
6. Primov B. The impact of cyber information on human life. Высшая школа: научные исследования. Материалы Межвузовского международного конгресса (г. Москва, 17 октября 2024 г.): Том 1. – Москва: Издательство Инфинити, 2024. – 110 с. -С. 46- 50.
7. Примов Б. Ахбортлашган даврда ёшларни фикрий қарамликка ундовчи таҳдидлар. Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. Тошкент молия институти “Ижтимоий фанлар” кафедраси “Ўзбекистоннинг янги ривожланиш босқичида ёшлар дунёқарашилини шакллантиришнинг ижтимоий, фалсафиа ва тарихий жиҳатлари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари 2020 йил 20 декабр. -Б. 118-121.
8. Примов Б. Ахборот: тараққиёт ва таназзул. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 6 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 -Б. 317-326